

**ZAMONAVIY KOREYS VA O‘ZBEK TILLARIDA GRADATSIYA****Aslonova Husnida Botirjon qizi***O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti***Annotatsiya**

*Ushbu maqola zamonaviy koreys va o‘zbek tillaridagi gradatsiya tushunchasiga bag‘ishlanadi. Gradatsiya o‘zbek tilshunosligida ham koreys tilshunosligida ham ifodani bosqichma bosqich kuchayib yoki kamayib borishini bildiradi. Maqolada o‘zbek va koreys tilshunosligiga olimlar gradatsiyaga qanday ta’rif bergani va tilda qanday ahamiyat kasb etishi yoritilgan. Ikki tildagi o‘zaro o‘xshashlik va farqli jihatlar tahlil qilingan va tahlillar yuzasidan xulosalar chiqarilgan.*

**Kalit so‘zlar:** gradatsiya, emotsiya, 수사법, 점층법, 점강법.

**KIRISH**

Matn tuzayotganda “biroz balandroq, biroz kattaroq, biroz ko‘proq, biroz kengroq” yoki “biroz pastroq, biroz kichikroq, biroz kamroq, biroz torroq” kabi darajalash usulidan foydalanish mumkin. Bu usulda kichikdan kattaga qarab, kattadan nisbatan kichikka qarab darajalanib boriladi. Masalan, notalar qatorida notalarning ko‘tarilib tushishi, quyosh atrofida aylanadigan sayyoralar qoldiradigan trayektoriya, yurak urishi, nafas olish singari jarayonlarda ritm hosil bo‘ladi. Ritm ma’lum siklni ifodalab, biror hodisasini boqichma-bosqich kuchaytirib ko‘rsatganda foydalaniladi. Gradatsiya ham aynan ritmga o‘xshab, “biroz balandroq, biroz kattaroq, biroz ko‘proq, biroz kengroq” yoki “biroz pastroq, biroz kichikroq, biroz kamroq, biroz torroq” kabi ifodalar orqali jumlaning ma’nosini chuqurroq va yorqinroq ifoda etish xususiyatiga ega.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD**

Koreys tilshunosligida 수사법 degan tushuncha bo‘lib, aynan gradatsiya hodisasi mana shu 수사법 tarkibiga kiradi. Koreys tilshunosligi va adabiyotshunosligida gradatsiya hodisasini o‘rganishdan oldin 수사법 tushunchasi bilan yaqindan tanishib chiqish talab etiladi. Koreys tilshunos olimlari tomonidan shu kunga qadar 수사법 keng qamrovda o‘rganilgan bo‘lib, quyida ularning olib borgan tadqiqotlari natijasi va nazariy xulosalari bilan tanishib chiqishni joiz deb bildik.

Wu Chunzhi (오춘지) “남한의 표준국어대사전에서는 ‘수사법’을 문학 용어로 분류하는데 ‘효과적·미적 표현을 위하여 문장과 언어를 꾸미는 방법’이라고 정의하고, 고려대한국어대사전에서도 ‘수사법’을 문학 용어로 분류하면서 ‘효과적이고 미적인 표현을 위해 말과 글을 꾸미고 다듬는 방법’이라고 정의한다.”[ 오춘, 2023:294.] Wu Chunzhi o‘zining tadqiqot ishida 수사법 ni adabiy termin sifatida ta’riflab, effektiv va go‘zal ifoda yaratish uchun gap va tilni bezatuvchi usul deb izohlagan. Uning aytishicha, Koreya universiteti lug‘atida ham 수사법 adabiy

termin sifatida keltirilib, “effektiv va go‘zal ifoda uchun nutq va matnni bezatuvchi usul”-deb ta’riflangan.

Ilmiy tadqiqot ishlardan tashqari koreys tili darsliklarida ham 수사법 ga turlicha ta’rif berilib, uning xususiyati va ahamiyati to‘g‘risida izohlar keltirilib o‘tilgan. “적절한 단어의 사용과 어법에 맞는 문장의 사용은 문장 쓰기의 기본이다. 그런데 그것만으로는 부족하다. 좀 더 효과적인 표현을 위해서는 다양한 표현 기법을 사용할 필요가 있다.” [한계전, 2002:247.] Han Gae-jun (한계전) ning fikricha, to‘g‘ri foydalanilgan so‘z va gap yasash usuli gap tuzishda muhim unsur sanaladi. Lekin faqat to‘g‘ri so‘zni qo‘llash bilangina maqsadga erishib bo‘lmaydi. Yanada effektiv ifodaga erishish uchun esa, turli ifoda usullaridan foydalanish talab etiladi. Lee Sang-tae (이상태) “글쓰기에서 효과적인 전달을 위한 표현의 기교를 닦는 일도 중요하다. 표현을 더욱 효과적으로 하는 방법으로서 비유와 강조와 변화의 방법이 쓰인다.” [이상태, 2002:179] -degan fikrni ilgari surib, u matn yaratishda ma’lumotni effektiv yetkazish uchun ijodkorlik qobiliyati muhim ekanligini ta’kidlaydi. Aynan effektiv ifodaga erishish uchun esa, o‘xshatish, ta’kid, o‘zgartirish kabi ifoda usullaridan foydalanilishini aytib o‘tgan. Lee Sam Hyung (이삼형) “능숙한 필자는 중심 내용이나 주제, 필자의 의도를 효과적으로 드러내기 위하여 여러 가지 표현 기법을 활용한다. 전통적인 수사학에서는 표현 기법을 비유법, 변화법, 강조법으로 구분한다.” [이삼형 외, 2011:174] Lee Sam Hyungning ta’kidlashicha, qobiliyatli yozuvchi asosiy mazmun yoki matn mavzusi, qolaversa, muallifning asarni yozishdan maqsadini yuqori natijada yoritib berish uchun turli ifoda usullaridan foydalanadi. Ritorika esa o‘xshatish, o‘zgartirish, ta’kidlash turlariga bo‘linishi haqida fikr bildirgan. Song Ki-Han (송기한) “좋은 글을 쓰기 위해서는 정보나 정서를 충실히 전달하는 것만으로는 부족하다. 중심 내용이나 주제, 글쓴이 자신의 의도를 효과적으로 드러내기 위한 여러 가지 표현 방법을 활용할 줄 알아야 하는데 대표적 방법으로는 비유법, 변화법, 강조법 등이 있다.” [송기한, 2011:172] – degan fikrni ilgari surib, u yaxshi matn yaratish uchun ma’lumotning o‘zi kamlik qilishini aytib o‘tgan. Olimning fikricha, matn mazmuni va mavzusi, shuningdek, muallifning matnni yozishdan ko‘zlagan maqsadini to‘laqonli o‘quvchiga yetkazib berish uchun yozuvchi turli ifoda usullaridan unimli foydalana olish qobiliyatiga ega bo‘lishi, asosan, o‘xshatish, o‘zgartirish, ta’kidlash usullarini yaxshi o‘zlashtirgan bo‘lishi lozim. Kim Jin-su (김진수) ning fikricha, “글에 사용되는 다양한 표현 방법을 공부하는 것은 글을 넓고 깊게 이해 하는 데 도움이 될 뿐만 아니라 우리의 생각이나 느낌, 경험 등을 효과적으로 표현하는 데에도 큰 도움이 된다.” [김진수, 2017:10] Ya’ni, matnda qo‘llaniladigan turli ifoda usullarini o‘rganish matnni keng va chuqur tushunishda yordam beribgina qolmay, balki, bizning fikrimiz yoki emotsiyamizni effektiv ifoda etishda juda qo‘l keladi. No Mi-Sook (노미숙) “비유, 상징과 같은 문학적 표현의 아름다움을 느끼고, 자신의 생각과 느낌을 문학적

표현을 활용하여 효과적으로 표현하는 능력을 기를 수 있을 것이다.” [김진수. 2017:12] Olimning ta’kidlashicha, o’xshatish, belgi kabi adabiy ifoda usullarining go’zalligini his qilib, o’z fikri va emotsiyasini adabiy usuldan foydalangan holda yuqori natijada ifoda etish yozuvchining ifoda qobiliyatini o’stirishda katta ahamiyat kasb etadi. Park Yeong Mog (박영목) “비유, 상징의 표현 방법이 쓰인 문학 작품을 감상하고, 자신의 경험을 바탕으로 하여 글을 쓰는 활동을 합니다. 이를 통해 문학 작품을 이해하고 표현하는 능력, 감동이나 즐거움을 주는 글을 쓰는 능력을 길러봅시다.” [박영목. 2017:12] Park Yeong Mog o’xshatish, belgi kabi ifoda usullaridan foydalanib yozilgan adabiy asar muallifning o’z tajribasidan kelib chiqib yozilgan bo’lib, u orqali biror nimani ifoda etish qobiliyati, o’quvchiga emotsiya yoki zavq bag’sh etish iqtidorini o’stirish mumkin ekanligini ta’kidlagan.

Gradatsiya va groduonimiya tushunchalari o’zbek tilshunosligida 80-yillarning oxirlaridan boshlab o’rganila boshladi. 90-yillarning o’rtalariga kelib tilshunos olim O.Bozorov o’zining “O’zbek tilida darajalanish” nomli doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. Shuningdek, O. Bazarov o’zining doktorlik dissertatsiyasida frazemalardagi darajalanishga ham alohida to’xtalib o’tgan. “Emotsional reaksiya chuqur yoki yengil-yelpi bo’lishi mumkin. Shunga ko’ra “emotsiyaning kuchli-kuchsiz darajada kechish” semasi ajratiladi. Emotsiya odatda uzoq davom etmaydi. Ana shu asosda “ma’lum muddat davom etish” semasi ajratiladi: ta’bi xira, ta’bi tirriq-kayfiyat, salbiy, kuchsiz daraja, qisqa muddatli. Ta’bi xira, dili siyoh, bag’ri qon: har uch frazemada “xafalik” ma’nosi anglashiladi, lekin “xafalik” ta’bi xirada- boshlang’ich bosqichda (bir oz), dili siyohda normal holatdan yuqoriroq (normadan kuchliroq darajada), bag’ri qonda eng yuqori bosqich (o’ta kuchli darajada). Shunga ko’ra ta’bi xira frazemasini “kayfiyati bir oz yomon” ma’nosini; bag’ri qon “g’am-alam, iztirob bilan to’lib toshgan” ma’nosini anglatadi. Ma’nodagi bu qadar katta farqlanish yuqoridagi uch frazemaning o’zaro sinonim emasligini ko’rsatadi. Asli ma’nodagi bunday farqlanish “emotsiyaning kuchli-kuchsiz darajada kechishi” semasi deb emas, balki “ma’no gradatsiyasi” semasi deb nomlash to’g’riroqdir.” [ O.Bazarov. 1997:145]

### **NATIJALAR**

Ruhiy holatni anglatuvchi iboralarda quyidagicha gradatsiya jarayoni yuz berishi mumkin:

1. Etini yemoq-ichini yemoq-o’z yog’iga o’zi qovurilmoq-yuragini yormoq-o’takasini yormoq;
2. Yuragi siqilmoq-yuragi ezilmoq-yuragi qon bo’lmoq;
3. Asabiga tegmoq-g’ashiga tegmoq-toqati toq bo’lmoq-sabr kosasi to’lmoq;
4. Esi og’moq-xushi ketmoq-esi chiqib ketmoq-joni halqumiga kelmoq-jon-poni chiqib ketmoq;
5. Og’zi qulog’ida-boshi osmonda-og’zi qulog’iga yetmoq-boshi ko’kka yetmoq.

[O.Bazarov. 1997:145]

O. Bazarovning dissertatsiya ishida semantik gradatsiyaga juda ko‘plab misollar keltirilgan:

1. Yelvizak-shabada-shamol-bo‘ron. (havo oqimining tezligi va hajmiga ko‘ra);
2. Changalzor-to‘qay-o‘rmon. (hajmi va siyrak-qalinligiga ko‘ra);
3. Do‘nglik-tepalik-adir-tog‘. (balandlik semasi bo‘yicha);
4. Chaqaloq-go‘dak-bola-yigit-erkak-qiz-xotin-kampir-qariya. (biologik o‘zgarishga ko‘ra);
5. Bola-nevara-chevara-evara-duvara-zuvara-uvara-begana;
6. Go‘l-dovdir-jini. (aqllilik holatiga ko‘ra);
7. Hushyor-shirakayf-mast. (hushyorlikka ko‘ra);
8. Mish-mish-visir-visir-tuhmat-bo‘hton. (nohaq ayb qo‘yish kuchining oshib orishiga ko‘ra);
9. Ayb-nuqson-qusur-illat. (fe‘l-atvorning salbiy tomoniga ko‘ra);
10. Kambag‘al-o‘rta hol-boy. (mol-mulk miqdoriga ko‘ra);
11. Zarda-jahl-g‘azab-qahr. (salbiy munosabat hissining oshib borishiga ko‘ra);
12. Nola-fig‘on-faryod. (g‘am hissining oshib borishiga ko‘ra);
13. Qo‘rqinch-vahima-dahshat-vahshat. (qo‘rqish hissining oshib borishiga ko‘ra);
14. Qasd-o‘ch-qasos. (alam olish hissining oshib borishiga ko‘ra);
15. Maslahat-iltimos-taklif-so‘rash-talab-buyruq. (aytish ta‘sirining kuchuga ko‘ra);
1. Yomon-qoniqarli-yaxshi-a‘lo. (sifatni baholashga ko‘ra);
2. Aynanlik-farqlilik-ziddiyat. (o‘xshashlikning kamayib borishiga ko‘ra);
3. Iliq-issiq-qaynoq. (haroratga nisbatan);
4. Salqin-sovuq-ayoz-muzday. (haroratga nisbatan);
5. Kenja-o‘rtancha-to‘ng‘ich. (farzand ketma-ketligiga ko‘ra);
6. Avvalgi-hozirgi-kelasi. (davrga nisbatan);
7. Quruq-xo‘l-shilta. (namlikka nisbatan);
8. G‘ira-shira-yorug‘-charog‘on. (yorug‘likka ko‘ra);
9. Pakana-o‘rta bo‘y-novcha-daroz. (bo‘yga nisbatan);
10. Oriq-to‘lishgan-semiz. (jussaga nisbatan);
11. Cho‘loq-oqsoq-lang. (qadam tashlashdagi nomutanosiblik darajasiga ko‘ra);
12. Bo‘shang-noshud-lapashang-lavang-epasqi-landovur-so‘tak-latta-mag‘zava. (ruhiy holatlarning bo‘shashib borishiga ko‘ra);
13. Ishchan-g‘ayratli-harakatchan-tirishqoq. (mehnatga qobiliyati va qobiliyatsizligi darajasiga ko‘ra);
14. Ishyoqmas-dangasa-yalqov-tanbal-soyaparvar. (mehnatga qobiliyati va qobiliyatsizligi darajasiga ko‘ra);
15. Ovora-sarson-sargardon. (harakatning tezligi, davomlilik tarziga ko‘ra);
16. Chopag‘on-chopqir-uchqur. (harakatning tezligi, davomlilik tarziga ko‘ra);
17. Ezma-ezma churruq-mijg‘ov.
18. Qaysar-o‘jar-battol. (fe‘l-atvor xususiyatlariga ko‘ra);

19. Qo‘pol-to‘ng-to‘rs-tund-ters. (fe‘l-atvor xususiyatlariga ko‘ra);
20. Xushomadgo‘y-laganbardor-labbaygo‘y-tilyog‘lama-yaltoq.(fe‘l-atvor xususiyatlariga ko‘ra);
21. Rahmsiz-shafqatsiz-zolim-qahrli. (fe‘l-atvor xususiyatlariga ko‘ra);
22. Ochko‘z-badnafsochovat. (fe‘l-atvor xususiyatlariga ko‘ra);
23. Insofsiz-vijdonsiz-muttaham. (fe‘l-atvor xususiyatlariga ko‘ra);
24. Xursand-quvnoq-shod. (ruhiy holatlarga ko‘ra);
25. Sergak-sezgir-ziyrak. (ruhiy holatlarga ko‘ra).

Koreys tilidagi gradatsion holatlarga esa quyidagilarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

1. 잠을 자야 꿈을 꾸고 꿈을 꺾어야 꿈을 보지. - Uyquga ketsang, tush ko‘rsan. Tush ko‘rsang, yoringni ko‘rsan. Ushbu misolda uxlash-tush ko‘rish-tushda yorini ko‘rish ketma-ketligi orqali darajalanish hodisasi yuz berganining guvohi bo‘lish mumkin.

2. 신록은 먼저 나의 눈을 씻고, 나의 가슴을 씻고, 다음에 나의 마음의 모든 구석구석을 하나하나 씻어 낸다. - Yashillik avvalo mening ko‘zimni yuvib, mening qalbimni tozalab, keyin qalbimning barcha burchaklarini birma-bir tozalaydi. Bu keltirilgan misolda ko‘z-qalb-qalbning burchaklari ketma-ketligi yordamida gradatsiya hodisasi yuz bergan.

Yuqorida keltirilgan misollar gradatsiyaning klimaks (점층법) turiga tegishli bo‘lib, quyida gradatsiyaning antiklimaks (점강법) turiga murojaat qilamiz.

Masalan:

1. 천하를 다스리고자 하는 자는 먼저 그 나라를 다스리고 그 나라를 다스리고자 하는 자는 먼저 그 집을 가지런히 하여야 한다. - butun dunyoni boshqarmoqchi bo‘lgan kishi avval bir davlatni boshqarishi, davlatni boshqarmoqchi bo‘lgan kishi avval bir oilani teng tutishi lozim. Bu misolda butun dunyo-davlat-oila ketma-ketligi pastga qarab darajalangan bo‘lib, bosqichma-bosqich pasayib, kichrayib borish, ya‘ni, antiklimaks (점강법) ga yaqqol misol bo‘la oladi.

2. 명예를 잃은 것은 모두를 잃은 것이요 - shon-sharafni yo‘qotish hamma narsani yo‘qotishdir.

용기를 잃은 것은 많은 것을 잃은 것이요, - botirlikni yo‘qotish ko‘p narsani yo‘qotishdir.

돈을 잃은것은 아무 것도 안 잃는 것이다. - boylikni yo‘qotish hech narsani yo‘qotishni bildirmaydi.

Ushbu misolda guvohi bo‘lganingizdek, shon-sharaf hamma narsaga, botirlik ko‘p narsaga tenglashtirilgani, boylik esa hech narsaga tenglashtirilmagani ko‘rsatilgan. Ya‘ni, borgan sari tenglashtirilayotgan vositalar kichrayib bormoqda. Bu ham gradatsiya hodisasining antiklimaks (점강법) turiga misol bo‘la oladi.

## XULOSA

Yuqorida zamonaviy koreys va o'zbek tillarida gradatsiya hodisasi qanday yuz berishi va uning tilshunoslik va badiiy adabiyotdagi tutgan o'rni haqida fikr yuritildi. Koreys tilida to'g'ri foydalanilgan so'z va gap yasash usuli gap tuzishda muhim unsur sanaladi. Lekin faqat to'g'ri so'zni qo'llash bilangina maqsadga erishib bo'lmaydi. Yanada effektiv ifodaga erishish uchun esa, turli ifoda usullaridan foydalanish talab etiladi. Matn mazmuni va mavzusi, shuningdek, muallifning matnni yozishdan ko'zlagan maqsadini to'laqonli o'quvchiga yetkazib berish uchun yozuvchi turli ifoda usullaridan unimli foydalana olish qobiliyatiga ega bo'lishi, asosan, o'xshatish, o'zgartirish, ta'kidlash usullarini yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi lozim. O'zbek tilida ham gradatsiya nafaqat sifat so'z turkumiga, balki, boshqa so'z turkumlariga ham, hatto fonetikaga ham xos hodisa hisoblanadi. Ma'nodoshlik qatorining atash va vazifa semalari bir xil, ifoda semalari farqli bo'lgan turidan boshqa yana bir boshqa ma'nodoshlik mavjud. Bunday qatorlarni ba'zi bir tilshunoslar ma'nodoshlik deb hisoblamaydilar, bunday leksemalarning mazmun guruhlarini alohida lug'aviy ma'no guruhlari deb sanaydilar. Bular narsa-buyum, belgi, harakat-holatni turli darajada atovchi leksemalar guruhidir. So'zlararo ma'no munosabatlari mazmuniy darajalanishi graduonimiya deb ataladi. Mazkur leksemalar qatori o'zaro darajali ziddiyatda turgani uchun darajalanish deb nomlanadi. Jumladan: ninni — chaqaloq — go'dak — bola darajalanish qatorini bola — farzand — zurriyot sinonimik qatori bilan solishtirilsa, ular orasidagi farqni sezish mumkin. Sinonimik qatordagi leksemalarning atash semalari bir xil, bir turdagi narsa-buyum, belgi-xususiyat, harakat-holatni bildiradi. Darajalanish qatorida esa umumiy atash semalari bir xil, ammo ular ma'lum bir semaning turli darajalarini ifodalaydi, muayyan belgi-xususiyatning oz-ko'pligiga ko'ra o'zaro qarama-qarshi qo'yadi. Masalan: shivirla-pichirla-ayt-gapir-baqir-hayqir qatori "ovoz miqdori" belgisi asosida tuzilgan, bu belgi "shivirla" dan "hayqir" ga tomon o'sib boradi va darajali ziddiyat qatorini hosil qiladi. Darajali ziddiyatlar tilning lug'at boyligini o'rganishda katta ahamiyatga ega. [X.Muhiddinova, D.Xudayberganova, I.Umirov, N.Jiyanova, T.Yusupova., 2006:53]

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

### O'zbek tilidagi adabiyotlar

1. O.Bazarov. O'zbek tilshunosligida darajalanish. Diss.-1997.-B.145.
2. X.Muhiddinova, D.Xudayberganova, I.Umirov, N.Jiyanova, T.Yusupova. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2006.-B.53.

### Koreys tilidagi adabiyotlar

1. 오춘지. 남한-북한-중국 조선적 수사법 교육 비교 연구. 한국어문교육 제 43 호. 고려대학교 한국어문교육연구소.2023.-P.294.

2. 한계전 외. 고등학교 작문.2002.- P.247.
3. 이상태. 고등학교 작문.2002.- P.179.
4. 송기한 외. 고등학교 작문 I.2011.-P.172.
5. 김진수 외. 중학교 국어 1-1.2017.- P.10.
6. 노미숙 외. 중학교 국어 1-1.2017.- P.12.
7. 박영목 외. 중학교 국어 1-1.2017.- P.12.